

Date: 13thFebruary-2025

**IJTIMOY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIGA IJOBIY
VA SALBIY TA'SIRI**

Abdumalikov Alisher Abdulazizovich

Farg'onha viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Marg'ilon shahar
Ichki ishlar bo'limi xodimi, Mayor

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlari ma'naviy qiyofasiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ma'naviy tarbiyasiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning bilim olishi, ijobiy tafakkuri va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi jihatlar bilan birga, ularning axloqiy buzilishlarga duchor bo'lishi, noto'g'ri hayot tarziga taqlid qilishi kabi salbiy oqibatlar ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, ma'naviy qiyofa, ijtimoiy tarmoqlar, ijobiy ta'sir, salbiy oqibat, axloqiy tarbiya, dunyoqarash, taqlid.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida yoshlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni tobora ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida yoshlari turli ijtimoiy tarmoqlar orqali keng dunyoqarashga ega bo'lishi, ma'naviy va intellektual jihatdan o'sishi uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Biroq, bu jarayon faqat ijobiy jihatlar bilangina cheklanib qolmay, ba'zan yoshlarning axloqiy buzilishlar, ma'naviy inqiroz kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi ham kuzatilmoqda. Shu bois, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlari ma'naviy qiyofasiga ko'rsatadigan ta'sirini har tomonlama tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur o'rganish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur ishda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlari tarbiyasi va ma'naviy qiyofasiga ta'siri xolisona tahlil qilinadi.

Yoshlari kundalik hayotida internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalananmoqda. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok, YouTube kabi platformalar ular uchun nafaqat muloqot vositasi, balki axborot olish, dunyo bilan bog'lanish, o'z qiziqishlarini namoyon etish maydoniga aylangan. Biroq, bu jarayon yoshlarning ma'naviy qiyofasi, axloqiy tarbiyasi va dunyoqarashiga birdek ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlari hayotiga ko'plab yangilik va qulayliklar olib kirdi. Avvalo, bu platformalar orqali yoshlari tezkor axborotga ega bo'lishadi, ilm-fan, madaniyat, san'at yangiliklaridan xabardor bo'lishadi. Masalan, turli ilmiy kanallar, ma'rifiy sahifalar orqali yoshlari dunyoqarashini kengaytiradi, xorijiy tillarni o'rganadi, zamonaviy texnologiyalar va kasblar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar iqtidorli yoshlari uchun ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, o'z ishlari va g'oyalarini keng ommaga yetkazish imkonini beradi. Bugungi kunda ko'plab yoshlari o'z vloglari, bloglari, ta'limga oid sahifalari orqali foydali bilim va motivatsion g'oyalar

Date: 13thFebruary-2025

tarqatmoqda. Bu esa yoshlarning nafaqat shaxsiy rivojlanishiga, balki ularning ma’naviy qiyofasini shakllantirishga ham katta hissa qo’shamoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar shuningdek, yoshlarni jamiyatda faol bo‘lishga, turli loyihalarda qatnashishga undaydi. Ko‘plab ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy aksiyalar yoshlar ishtirokida o’tmoqda. Xayriya tadbirlari, ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan marafonlar, milliy qadriyatlar va an’analarni targ‘ib qiluvchi loyihalar yoshlarning vatanparvarlik ruhini oshiradi, ularni ma’naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalaydi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri ham bugungi kunda jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ba’zan yoshlar bu platformalarda axloqsizlik, zo‘ravonlik, noto‘g‘ri turmush tarzi, buzuq g‘oyalar targ‘ib qiluvchi ma’lumotlar ta’siriga tushib qolmoqda. Bunday materiallar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning ma’naviy qiyofasini buzadi, milliy qadriyatlarga zid dunyoqarash shakllanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘pincha yoshlar o‘z tengdoshlariga taqlid qilib, ularning hayot tarziga ergashishga intiladi. Mashhurlikka erishish, ko‘proq layk va obunachi yig‘ish maqsadida ba’zan yoshlar o‘z odob-axloq me’yorlaridan chekinadi, bo‘rttirilgan, sun’iy hayot tarzini ko‘rsatishga urinishadi. Bu esa yoshlarda yolg‘onchilik, maqtanchoqlik, boylikka havas, ochiq-sochiqlik kabi illatlarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yana bir muhim muammo – bu yoshlarning bo‘sh vaqtining asosiy qismini ijtimoiy tarmoqlarda behuda sarflashi. Soatlab telefon yoki kompyuter oldida o‘tirish, doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish yoshlarning sog‘lig‘iga, ayniqsa, ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ko‘p vaqt onlayn muloqotda bo‘lish natijasida ular real hayotdagi muloqot ko‘nikmalaridan uzoqlashadi, do‘srtlari va oilasi bilan munosabatlari susayadi. Bu esa kelajakda yoshlar o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishiga, yolg‘izlik hissining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan faqat ijobiy maqsadlarda foydalanishi uchun ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyatning barchasi birlgilikda harakat qilishi lozim. Eng avvalo, oilada bolalarga to‘g‘ri tarbiya berish, ularni axborot xurujlaridan himoya qilish zarur. Ota-onalar farzandlarining qaysi sayt va sahifalardan foydalanishini nazorat qilishi, ularga zararli ma’lumotlardan ogoh bo‘lish zarurligini tushuntirishi kerak. Ta’lim muassasalarida esa yoshlarni axborot madaniyatiga o‘rgatish, ularga tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim. Shuningdek, milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi, ma’naviy-ma’rifiy an’analalar asosida tarbiyalash orqali yoshlar ongida mustahkam immunitet shakllantirish lozim. Ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy, foydali, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi sahifalar faoliyatini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida katta o‘rin tutadi va ularning ma’naviy qiyofasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sirning ijobiy yoki salbiy bo‘lishi esa, asosan, yoshlarning o‘ziga, ularning tarbiyasiga, atrof-muhit va ota-onalar nazoratiga bog‘liq. Shu bois yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarning zararli ta’siridan himoya qilish, ulardan foydali va ma’rifiy maqsadlarda foydalanishni targ‘ib etish barchamizning

Date: 13thFebruary-2025

burchimizdir. Bu orqali yoshlarning ma’naviy qiyofasini yanada yuksaltirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Kushakova N.I “Yoshlarning ijtimoiylashuviga internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri”; “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” jurnali, 2022-yil, 4-son.
2. Nazirov B. S.” Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri va ularni bartaraf qilishga doir takliflar”; “O‘zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrash” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman; 2023-yil
3. Eshov N.S; “Zamonaviy gadjetlarga qaramlikning voyaga yetmagan yoshlar tarbiyasiga ta’siri”: “Pedagoglar” jurnali, 2024-yil, 61-son, 2-to‘plam.